



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 3 Issue: 1

## TA'LIMDA INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Burhonova E'zoza Baxtiyor qizi

Nurota tuman 2-son politexnikumi  
Biologiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lismi samardorligini oshirishda interfaol ta'limga texnologiyalari va ularidan foydalanishning ahamiyati, ta'linda texnologiya, o'qitish tushunchasining mazmun mohiyati, tanqidiy fikrash bilan bog'liq funksiyalarni ta'limga shaxsga yo'naltirilgan tizimi vositasida amalga oshirilishi, interfaol ta'limga texnologiyalari ularidan foydalanish imkoniyatlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, ta'limga texnologiyasi, o'qitish texnologiyasi, pedagogik texnologiya, ta'limga berishni texnologiyalashtirish, innovatsion yondashish.

Hozirgi davrda ta'limga jarayonida interfaol metodlardan foydalanish talab etilayotgan ekan, o'quvchini doimiy ravishda o'z fikrini to'liq ifodalashga, o'z yo'li va maqsadini mustaqil belgilashga, zimmasidagi ma'suliyatni his etishga o'rgatilishi talab etiladi. Interfaol metodlardan foydalanish orqali ta'limga saviyasi yaxshilanadi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bolalar faollashadi, dunyoqarashi va tafakkuri boyib boradi. Shunga ko'ra, ta'limga samaradorligini oshirish borasida gap ketganda interfaol ta'limga texnologiyalar, faol va interfaol ta'limga texnologiyalari tushunchalariga doimiy duch kelamiz. Shu o'rinda aytish joizki, o'qitishning passiv modelida o'qituvchi asosiy aktyor va darsning boshqaruvchi yo'nalishida bo'lib, ta'limga oluvchilar o'qituvchining ko'rsatmalariga bo'ysunadi va passiv tinglovchilar sifatida harakat qilishadi. O'qituvchining darslarda ta'limga oluvchilar bilan aloqasi bir tomonlama bo'lib, so'rovlari, mustaqil, nazorat ishlari, testlar va boshqalar orqali amalga oshiriladi.

Ushbu turdagagi darslarning ijobiy jihatiga o'qituvchi tomonidan mashg'ulotlarga nisbatan oson tayyorgarlik va darsning cheklangan vaqtlarida nisbatan ko'proq o'quv materiallarini taqdim etish qobiliyatidir. Ta'limga oluvchining o'quv materiallarini o'zlashtirishning samaradorligi nuqtai nazaridan esa bu passiv usul hisoblanadi va samarali emas. Shu o'rinda ko'plab afzalliliklarga ega bo'lgan ta'limga faol texnologiyalari haqida quyidagicha to'xtalish mumkin.

Ta'limga faol modeli ta'limga oluvchilar va o'qituvchilarning o'zaro hamkorligiga asoslanadi, unda ta'limga oluvchilar passiv tinglovchilar emas, balki faol ishtirokchilar, ta'limga oluvchilar va o'qituvchilar teng pozitsiyalarda faoliyat yuritadilar.



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

## REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



**Volume: 3 Issue: 1**

Ta'lism jarayonida zamonaviy ta'lism texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy va samarali bo'lishi bilan birga dolzarb hisoblanadi. Chunki zamonaviy ta'lism texnologiyalaridan foydalanish natijasida ta'lism oluvchilar egallangan bilimlarni o'rganish va tahlil qilish, shuningdek, ularning ijodiy qobiliyati va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniga egadir. Ta'lism texnologiyasidan foydalanish muammosi:

- zamonaviy ta'lism texnologiyalarini o'zlashtirish orqali o'z-o'zini tarbiyalash darajasini oshirish;
- olgan bilimlarini amalda qo'llash;
- zamonaviy ta'lism texnologiyalari samaradorligini aniqlash;
- ta'lism oluvchining ta'lism sifatini oshirish

• faol ta'lism texnologiyalari ta'lism jarayonida faol fikrash va amaliy faoliyatga jalg qilish, ularni rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirish, baholash va treningda faol ishtirok etish (masalan, muammoli ma'ruza, birgalikda ma'ruza, oldindan rejalashtirilgan xatolar bilan ma'ruza, ma'ruza-konferensiya; muammoli seminar, evristik suhbat; o'quv muhokamasi; adabiyot bilan mustaqil ishlash; seminar-trening; keys-stadi; portfel).

Interaktiv ta'lism modeli-faol ta'lism texnologiyalari guruhning o'zaro hamkorlik va o'zaro o'rganish tajribasini o'zlashtirish jarayoniga ta'sirini kuchaytirishning psixologik mexanizmlariga asoslangan rivojlanishning faol modelidir.

Faol ta'lism texnologiyalar haqida so'z borarkan, innovatsion pedagogik texnologiya turlariga qisqacha to'xtalmoqchiman. Ta'lismni modernizatsiyalashtirish ta'lism jarayonida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish bilangina hal bo'lib qolmaydi. Ta'lism oluvchi shaxsni mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrash kabi sifatlar bilan bog'liq funksiyalarni ta'lismni shaxsga yo'naltirilgan tizimi vositasida amalga oshiriladi.

Ta'lism texnologiyalari muayyan o'quv predmeti uchun dastur va ta'lism standartida belgilangan maqsadlarga erishish uchun ta'lism jarayoniga integratsiyalashishga imkon beradi.

Pedagogik texnologiyalar pedagogik strategiyaning asosiy yo'nalishlarini ta'lismni insonparvarlashtirish va shaxsga yo'naltirilgan tizimli yondashuvni ya'ni ta'lism oluvchining aqliy rivojlanishini, ularning mustaqilligini hamda o'qituvchiga va bir-biriga mehr-muruvvat ko'rsatish kabilarni amalga oshirishni ta'minlaydi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyati insonning individualligiga, uning ijodiy faoliyatni rivojlantirishga, shaxsiga alohida e'tibor



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 3 Issue: 1

qaratishni taqazo etadi. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda “Pedagogik (ta’lim) texnologiya” tushunchasining turli talqinlari mavjud.

**Texnologiya** – tanlangan usul doirasida muayyan faoliyatni amalga oshirishning batafsil usuli.

**Ta’lim texnologiyasi** - fan doirasida o‘qituvchi faoliyatining shunday tuzilmasiki, unda ma’lum harakatlar va bashorat qilingan natijaga erishish ketma-ketlikda taqdim etiladi.

**O‘qitish texnologiyasi** – mavzu doirasida mavjud sharoit va o‘rnatilgan vaqtida belgilangan ta’limiy maqsad va ko‘zlanayotgan natijalarga kafolatli erishishni vositali ta’minlovchi, muloqot, axborot va boshqaruvning eng qulay yo‘l va o‘qitish vositalarining tartibli yig‘indisi.

**Ta’lim berishni texnologiyalashtirish** – bu o‘qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta’lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo’llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo‘nalishdir.

Bugungi kunda xorij pedagogikasida ta’lim texnologiyalarining umumqabul qilingan tasnifi mavjud emas. Bu dolzarb ilmiy-amaliy muammoni hal etishga turli mualliflar turlicha yondashadilar.

O‘qitishga innovatsion yondashishda yangi texnologiyalarga asos bo‘luvchi asosiy tamoyil, talab va maqsadlar majmui sifatida yondashishdir.

Xulosa shuki, zamonaviy ta’limning talabi ta’lim oluvchilarga iloji boricha ko‘proq bilim berish emas, balki ularni mustaqil o‘rganishga, nafaqat bilishga, balki olingan ma’lumotlar bilan faoliyat ko‘rsatishga o‘rgatishdir.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayeva Sh., Ahatova D. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar. Navoiy – 2003-yil.
2. Hamroyev B. Ta’lim texnologiyalari. Toshkent-2018 yil.
3. Kasb-hunar ta’limi. Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal. 2019-yil.
4. Pedagogika nazariyasi va tarixining ayrim dolzarb muammolari. “Fan” nashriyoti, 2006-yil.
5. Saidov S. “O‘qitish metodlari va usullari”, Fan nashriyoti, 2015 yil.